

UDC: 347.9(045)(571.1)

## SUD HOKIMIYATI ORGANLARIDA SUN'YI INTELLEKTNING QO'LLANILISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT

**Bozarov Sardor Sohibjonovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
ORCID: 0000-0003-0123-7811  
e-mail: Sardor\_bazarov1980@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif tomonidan sudlarda sun'iy intellektning asosiy vazifalari: ma'lumotlarni tashkil etish, maslahat berish, bashorat-oldindan taxmin qilish kabi funksiyalari tahlil etilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada sud amaliyotida SIning qo'llanilishi tamoyillari: axloqiy, inson huquqlari hurmat qilinishi, teng munosabatda bo'lish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, shafqoflik, sun'iy intellektning foydalanuvchilar nazorati ostida bo'lishi tamoyillari ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, muallif o'z maqolasida sun'iy intellektdan sud hokimiyati organlarida samarali foydalanish kabi masalalarni atroflicha o'rgangan. Muallif o'z xulosasida sun'iy intellektni sud-da qo'llashni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan. Sud amaliyotining bir xilligi va sud hujjatlarining ochiqligi ta'minlanadi. Fuqarolar uchun sun'iy intellekt AT sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan foydalangan holda, sud ishlarini ko'rib chiqish natijalarini topish va baholash uchun sifatli vositaga aylanadi. Bu da'vogarga sudga da'vo qilingan arizaning muvaffaqiyatli bo'lish ehtimolini taxmin qilish va shu asosda ishni sudga bermasdan qaror qabul qilish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, bashorat-oldindan taxmin qilish, axloqiy tamoyillar, inson huquqlari hurmat qilinishi tamoyili, teng munosabatda bo'lish tamoyili, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, sud hokimiyati organlari, raqamlashtirish, sun'iy intellektni nazorat qilish, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data).

### ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОРГАНАХ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

**Бозаров Сардор Сохибжонович,**  
доктор философии по юридическим наукам,  
доцент, начальник Учебно-методического управления  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье автором проанализированы основные функции искусственного интеллекта в судах, такие как организация данных, консультирование, прогнозирование. Кроме того, в статье рассматриваются с научной точки зрения принципы применения искусственного интеллекта в судебной практике: этические принципы, принцип соблюдения прав человека, принцип равноправия, принцип безопасности данных, принцип прозрачности, принципы пользовательского контроля за искусственным интеллектом. Наряду с вышеизложенным автор подробно изучил такие вопросы, как эффективное использование искусственного интеллекта в судебной системе. В заключении автор выдвигает предложения по дальнейшему совершенствованию использования искусственного интеллекта в судах. Так, будут обеспечены единообразие

судебной практики и прозрачность судебных документов. Для граждан искусственный интеллект станет качественным инструментом поиска и оценки исхода судебного разбирательства с использованием последних достижений в области информационных технологий. Это позволяет истцу предсказать вероятность успеха рассмотрения иска и на основе этого принять решение, не обращаясь в суд.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, прогнозирование, этические принципы, принцип защиты прав человека, принцип равенства, обеспечение безопасности информации, органы судебной власти, цифровизация, контроль искусственного интеллекта, большие данные (*big data*).

## THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE JUDICIARY: THEORY AND PRACTICE

**Bazarov Sardor Sohibjonovich,**

Head of the Educational and Methodological Department  
of Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy in Law, Associate professor

**Abstract.** *In this article, the author analyzes the main functions of artificial intelligence in courts: such as organizing data, consulting, and forecasting. In addition, this article discusses the principles of applying artificial intelligence in judicial practice from a scientific point of view: such as ethical principles, the principle of respect for human rights, the principle of equality, the principle of data security, the principle of transparency, the principle of user control over artificial intelligence. Along with the above, the author thoroughly studied the effective use of artificial intelligence in the judicial system. In conclusion, the author puts proposals forward for further improvement of the use of artificial intelligence in courts that uniformity of court practice and transparency of court documents will be ensured. For citizens, artificial intelligence will become a quality tool for finding and evaluating the outcome of court proceedings using the latest advances in IT. This allows the plaintiff to predict the likelihood of the success of the application being sued and to make a decision on that basis without going to court.*

**Keywords:** *artificial intelligence, predict-prognosis, ethical principles, the principle of protecting human rights, the principle of equality, ensuring the security of information, judicial authorities, digitalization, artificial intelligence control, big data.*

### Kirish

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm hamda boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda.

Mazkur maqolada sun'iy intellekt sudlar va sudyalar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi mumkin, sun'iy intellektdan foydalanish uchun nimalar qilish kerak, degan savollar atroflicha tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt o'zi nima? "Sun'iy intellekt" atamasi birinchi marotaba 1956-yilda kompyuter texnologiyalari sohasida amerikalik yetuk mutaxassislardan biri, axborot texnologiyalari sohasida funksional dasturlashni yaratgan mashhur olim Jon Makarti tomonidan fanga kiritilgan [1]. Unga ko'ra, sun'iy intellekt – aql-idrok, mantiqiy va izchil mulohaza yuritish, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, asoslash va ko'rish, muammolarni hal etish, yangi vazifalarni bajarish, yangi vaziyatlariga moslashuvchan tizimlarni yaratish va muammoni mustaqil ravishda o'rganish qobiliyatidir.

Sun'iy intellekt samarali ishlashi uchun unga "katta hajmdagi ma'lumotlar" kerak

bo‘ladi. “SIRI” ismli raqamli yordamchi yaratuvchilaridan biri Lyuk Julia shunday deydi: “Sun’iy intellektga asoslangan mashina mushukni 95% aniqlik bilan taniy olishi uchun bizga 100 000 ga yaqin mushukning surati kerak bo‘ladi” [2].

So‘nggi yillarda ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlariga sun’iy intellektni tatbiq qilish, axborotlashtirish va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Chunki mazkur tendensiya inson uchun har taraflama qulayliklar yaratish, vaqtni tejash, bir vazifani uzoq muddat muntazam ravishda xatosiz bajarish imkoniyatlarini yaratmoqda.

### **Material va metodlar**

Tadqiqotning normativ asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatning farmon va qarorlari, shuningdek, sud-huquq faoliyati sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida umuminsoniy xarakterga ega bo‘lgan ilmiy bilishning umumiy dialektik usuli hamda mantiqiy deduksiya, induksiya, kognitiv usullar, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va tavsiflash usullari tashkil etildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Aynan huquqni muhofaza qilish idoralarida ham sun’iy intellektdan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu fikrni sud tizimi misolida tahlil qiladigan bo‘lsak. Albatta, bunday vaziyatda sun’iy intellekt sud hokimiyati organlari uchun qanday imkoniyatlar taqdim eta oladi, degan savol hech kimni befarq qoldirmaydi. Olimlar va yetuk amaliyotchilarning fikriga ko‘ra, sudlarda sun’iy intellekt insonlardan farqli o‘laroq,

hech qanday jismoniy toliqishni his qilmaydi [3]. Bundan tashqari, ishlar o‘z vaqtida ko‘rib, yanada adolatli qaror chiqarilishi ta‘minlanadi.

Sud hokimiyati organlarida sun’iy intellektning asosiy vazifalaridan biri ma‘lumotlarni tashkil etish yoki ma‘lumotlar bilan ishlashdir. Ayniqsa, matnli hujjatlar va fayllarni tanib olish, katta va kichik hajmdagi ishlarni saralash, shuningdek, katta hajmdagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan murakkab holatlarda juda ham foydali. Bunga misol qilib “eDiscovery”ni keltirish mumkin. Ushbu sun’iy intellekt qurilmasi Amerika Qo‘shma Shtatlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, sud jarayoniga qadar elektron ma‘lumotlarni aniqlash uchun avtomatlashtirilgan tekshirish tizimi hisoblanadi. “eDiscovery” katta hajmdagi ma‘lumotlar ichidan muayyan ishga taalluqli bo‘lgan qismini ajratib olishga yordam beradi. “eDiscovery”dan foydalanishda sud jarayoni boshlanishidan oldin taraflar qaysi so‘z va kodlardan foydalanishlari haqida kelishib oladilar. Sudya kelishuvni baholaydi va tasdiqlaydi. Hozirga kelib ushbu sun’iy intellektga asoslangan qurilma AQSh va Buyuk Britaniya sudlari tomonidan e‘tirof etilgan eng samarali usul hisoblanadi. Mazkur usul fayllarni qo‘lda o‘rganishga qaraganda ancha tezroq va qulaydir\* [4].

Yana bir asosiy vazifalaridan biri bu maslahat hisoblanadi. Maslahat berishga qodir bo‘lgan sun’iy intellekt o‘z muammosiga mazmunan yechim qidirayotgan taraflar hamda huquqshunos amaliyotchilar uchun katta hajmdagi ishlarni bajaradi. Mazkur sun’iy intellekt ma‘lumotlarni qidirib topish bilan birga, berilgan savollarga javob ham beradi. Huquqiy maslahat beruvchi sun’iy

\* The first case in which this methodology was accepted as legally valid was *Anti-Monopoly, Inc. v. Hasbro, Inc.*, 1995 WL 649934 (S.D.N.Y., Nov. 3, 1995), by Andrew Peck, magistrate in het Southern District of New York. In *Da Silva Moore v. Publicis Groupe & MSL Group*, No. 11 Civ. 1279 (ALC) (AJP) (S.D.N.Y., Feb. 24, 2012) Peck decided that eDiscovery is an acceptable way of searching for relevant digital information in applicable cases, in *Rio Tinto PLC v. Vale S.A., et al.*, 2015 WL 872294 (S.D.N.Y., Mar. 2, 2015) he approved the parties’ stipulated review protocol for the technology assisted review (TAR) of documents, noting judicial acceptance of the practice when proposed by the parties and the emerging issue of disclosure of the seed set used to train the program. And in *Hyles v. City of New York*, et al., No. 10 Civ. 3119 (AT) (AJP) (S.D.N.Y., Aug. 1, 2016) he wrote that “Even though TAR will be permitted in cases before his court, its use won’t be mandated. In the United Kingdom, the practice was also recognized, in High Court of Justice Chancery Division, U.K. (2016). *Pyrrho Investments Ltd v. MWB Property Ltd* [2016] EWHC 256 (Ch).

intellekt o'z maslahatlari bilan fuqarolarga muammolarni mustaqil ravishda sudgacha hal qilish imkoniyatini yaratadi. Agar maslahat yetarli bo'lmasa, ushbu sun'iy intellekt muammoning yechimi bo'yicha asoslantirilgan fikrni ilgari surishi ham mumkin. Ushbu sun'iy intellekt Kanadaning Britaniya Kolumbiyasidagi fuqarolik ishlari tribunalida qo'llanilmoqda [4] va CRT mulk bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish uchun yaratilgan. Tizimning samarasi tobora ortib borayotgani sari uning qo'llanilishi doirasi ham kengaymoqda. 2019-yildan boshlab esa mazkur tizim sudda yo'l transport hodisalari tufayli badanga tan jarohati yetkazish bilan bog'liq ishlarni ko'rishda ham foydalanila boshladi.

CRT tun-u kun va dam olish kunlarisiz ishlaydigan bepul yuridik ma'lumot taqdim etish qobiliyatiga ega bo'lgan Solution Explorer ni taklif etadi. Mazkur CRTda bosqichma-bosqich ko'rsatmalar berish, interaktiv savollar va javoblar, ishlarni mazmunan hal qilish yoki ishni sudgacha tayyorlash kabi funksiyalar bajariladi. Bundan tashqari, CRTda maxsus ekspert tizimi mavjud bo'lib, u har uch oyda yangilab boriladi. Mazkur tizim ekspert-mutaxassislar tomonidan foydalanuvchilarning tizim haqidagi taqriz va tahliliy ma'lumotlari asosida yangilanib, amalga oshiriladi. Shu bois ushbu tizimni to'liq sun'iy intellektga asoslangan qurilma deyish mushkul.

Niderlandiyaning Sharqiy Brabant tuman sudida Tilburg universiteti, Eydxoven Texnologiya universiteti va Jeronimus (JADS) fanlar akademiyasi tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari bilan bog'liq ishlar bo'yicha fuqarolarning ma'muriy sudga murojaati bo'yicha sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'rganish davom etmoqda [5]. Ushbu tadqiqot sudyalarga ishlar yuzasidan qaror qabul qilish uchun ko'maklashuvchi alohida vositaning faoliyati bilan bog'liq. Tadqiqotda Sharqiy Brabant va Zelandiya-G'arbiy Brabant tuman sudlari, shuningdek, apellatsiyalarni ko'rib chiqadigan Arnhem-Leuvarde

apellatsiya sudi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

*Bashorat-oldindan taxmin qilish.* Hozirgi kunga kelib, jamiyat hayotining barcha sohalarida oldindan taxmin (bashorat) qila oladigan sun'iy intellektga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sud ishlarini ham oldindan taxmin (bashorat) qila oladigan sun'iy intellektga katta qiziqish bildirilmoqda. Ushbu sun'iy intellekt ingliz/amerika tajribasida alohida o'ziga xos nom bilan ataladi, ya'ni "bashoratli adolat" deb nomlanadi. Mazkur atama ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'ldi, chunki sud jarayonlari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Albatta, sud jarayonida ma'lum ish yuzasidan qancha ko'proq ma'lumot va holatlar mavjud bo'lsa, ish shuncha murakkablashib boraveradi. Bu sun'iy intellektga bo'lgan qiziqishning asosiy sabablari-dan biri, chunki u xavfni kamaytirishga qodir hisoblanadi.

Hammamizga ma'lumki, AQShda oldindan taxmin (bashorat) qila oladigan turli vositalar tijorat maqsadida taklif etiladi. Shu bois bu yerda tijorat siri nou-xouning qat'iy sir tutilishi mazkur vositalarning qanday ishlash tartiblarini bilish imkoniyatini umuman cheklab qo'yadi. Biroq ba'zi bir notijorat ilovalar mavjud bo'lib, ularning ishlash mexanizmi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati mavjud.

Misol uchun, bir guruh amerikalik olimlar tomonidan sun'iy intellekt ilovasi (SCOTUS) ishlab chiqilib, ushbu ilova Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudidagi ishlarning 70,2 %ini aniqlik bilan taxmin qilib bera oladigan, shuningdek, ovoz berishda alohida shaxslarning kelgusidagi xatti-harakatlarini 71,9 % aniqlik bilan aytib berish imkoniyatiga ega.

Yevropada eng ko'p e'tirof etilgan ilova bu Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (ECHR) qarorlarini bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ilova hisoblanadi [6]. Mazkur qurilma ma'lum bir holatda sud tomonidan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa



konvensiyasining (ECHR) u yoki bu normasi buzilishi to'g'risida chiqariladigan qarorlarni oldindan aytib berish uchun foydalaniladi. Qurilma oldingi qarorlardagi ma'lumotlar asosida ishlaydi va uning aniqlik ko'rsatkichi 79 %ni tashkil etadi. Ma'lumotlarni qayta ishlaydigan ushbu sun'iy intellekt murakkab jarayonni ancha soddalashtiradi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasi (ECHR) bilan bog'liq ishlarning asosiy qismi Komissiya, bir yoki bir necha sudyalarda ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Tergovchilar faqat HUDOC, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasining onlayn ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan qarorlar va boshqa ma'lumotlardan foydalanadilar [7].

Aletras ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularning natijalari shundan dalolat beradiki, ishning sud tomonidan taqdim etilgan faktlari ish natijalarining eng kuchli ko'rsatkichi hisoblanadi. Ular buni sudyalarda uchun foydali yordam deb hisoblaydi, chunki u matndagi belgilarni tez sur'atlarda tanib oladi va shu tariqa hukm qaysi yo'nalishda bo'lishi mumkinligini qisqa fursatlarda ang'ay oladi.

Jinoyat ishlarida jinoyatning takroran sodir etilishi (retsdiv)ni oldindan bashorat qilish Amerika Qo'shma Shtatlarida sun'iy intellekt qo'llanilishining yana bir amaliy misolidir. COMPAS amalda AQShda jinoyat ishlari bo'yicha sudyalarda tomonidan ayrim shtatlarida sudlanuvchilar yoki mahkumlarning takroran jinoyat sodir etish xavfini baholashda, sudgacha qamoqqa olish, hukm chiqarish yoki muddatidan oldin ozod qilish to'g'risidagi qarorlarda qo'llaniladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida boshqa mamlakatlarga nisbatan ko'proq odamlar hibsga olinadi. Shuning uchun COMPAS kabi vositalardan foydalanish tarafdorlari shaxslarni hibsga olish sonini sezilarli darajada kamaytiradi, deb o'ylaydilar, chunki ushbu uskunalarining takroriy jinoyatlar sodir etilishi xavfini obyektiv tarzda baholash darajasi anchagina yuqori hisoblanadi [8].

COMPAS qurilmasi o'z faoliyatida 137 ta savoldan iborat anketa ma'lumotlaridan foydalanadi, jumladan: "Och qolgan odam o'g'rilik qilishi mumkinmi? Javob: to'liq qo'shilmayman, qo'shilmayman va hokazo.

Yana bir misol AQShdagi Ravel startapi hisoblanadi. Mazkur startap hukmlar, sudlar, shuningdek, sudyalarda profilidagi tendensiyalarni tahlil qilish uchun alohida vositalar ishlab chiqdi va ularni obuna asosida taklif qiladi. Ushbu uskunalarining ishlashi omma-viy emas va uning to'g'riligi haqida atrof-licha ma'lumot taqdim qilinmagan. Ravel AQShdagi eng yirik huquqiy ma'lumot yetkazib beruvchi LexisNexis tomonidan sotib olingan va ushbu uskunalar endi LexisNexis xizmatlari paketining bir qismiga aylanib bormoqda.

*Sud amaliyotida Sining qo'llanish tamoyillari*

1. *Axloqiy tamoyillar.* Ushbu texnologiya bilan qanday ishlash va undan amaliyotda qanday foydalanish bo'yicha hanuzgacha qizg'in muhokama ketmoqda. Umuman olganda, sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy tamoyillari 25 ortiq hujjatda o'z aksini topgan. Xususan, bular ichida Elektr va elektronika muhandislari instituti (IEEE), Yevropa ittifoqi va Yevropa kengashining qoidalarini belgilovchi hujjatlar ham bor.

Yevropa kengashining Odil sudlov samaradorligi komissiyasi (CEPEJ) bu masalani ko'rib chiqdi. CEPEJning sifat bo'yicha ishchi guruhi (GTQUAL) odil sudlovni amalga oshirishda sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy tamoyillarini ishlab chiqdi va ushbu tamoyillar 2018-yilning dekabr oyida qabul qilindi [9].

Ushbu beshta "Axloqiy tamoyillar"ning ayrim jihatlari u yoki bu holatda bir-biriga to'qnash keladi. Shuning uchun ular bilan qat'iy va tizimli munosabatda bo'lish biroz muammoli hisoblanadi.

2. *Inson huquqlari hurmat qilinishi tamoyili.* Sun'iy intellekt xizmatlari, vositalari va uskunalarini yaratish hamda amaliyotga

joriy etishda erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, tenglik kabi asosiy tamoyillarga rioya qilinishi shart.

3. *Teng munosabatda bo'lish tamoyili.* Mazkur tamoyil alohida guruhlar va shaxslar o'rtasidagi kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi. Ba'zi holatlarda sun'iy intellekt-dan foydalanishda shaxslarning kamsitilishi va asossiz ravishda guruhlariga ajratilishi xavfi yuzaga kelmoqda.

4. *Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash tamoyili.* Sud qarorlari va ma'lumotlarini qayta ishlashda texnologik jihatdan xavfsiz muhitga joylashtirilgan hamda ko'p tarmoqli modellar bilan o'zgartirib bo'lmaydigan sertifikatlangan manbalar va ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

5. *Shaffoflik tamoyili.* Ma'lumotlarni qayta ishlash usullari shaffof va tushunarli bo'lishi kerak, bunda ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'lishi, tashqi yoki jamoatchilik nazoratiga ruxsat berilishi talab etiladi. Ma'lumki, sun'iy intellekt texnologiyalari hamda raqamlashtirish tizimlarining joriy etilishi sud amaliyotida oshkoralikni ta'minlaydi. Algoritm foydalanuvchisi foydalanilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida ommaga e'lon qilib borishi muhim hisoblanadi. Bunday oshkor qilish tamoyili ma'lumotlar, mulohazalar hamda taxminlarni baholash imkonini yaratishi zarur. Mazkur ma'lumotlar, mulohazalar, tanlashlar va taxminlarga asoslanib, qabul qilingan qarorlardan samarali huquqiy himoyani ta'minlashda foydalaniladi.

6. *Sun'iy intellektning foydalanuvchilar nazorati ostida bo'lishi tamoyili.* Algoritm-dan xuddi bir ko'rsatma sifatida foydalanib bo'lmaydi, ya'ni kompyuter o'zi mustaqil ravishda hech qanday ko'rsatma bera olmaydi. Foydalanuvchilar sun'iy intellekt nima qilayotganini bilishi va tushunishi lozim, shuningdek, foydalanuvchilar sun'iy intellekt tomonidan amalga oshirilayotgan tanlovlar-ni muntazam ravishda nazorat qilib borishi zarur. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilar hech qanday qiyinchiliksiz algoritm nati-

jalaridan chetga chiqa olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Sun'iy intellektning inson tomonidan nazorat qilinishi bilan bog'liq nizo Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Viskonsin Oliy sudidagi Lumis ishida ko'rilgan [10].

Mazkur ishda quyidagi muammolar mavjud edi: birinchisi, COMPAS uskunasi-dan foydalanish va unda qanday ishlash jarayoni tijorat siri bo'lib turgan bir vaqtda mazkur qurilma bilan xavfni baholash natijalaridan foydalanish javobgar yoki sudlanuvchining odil sudlovga bo'lgan huquqini buzishi mumkinmi yoki yo'qmi, degan muhim savol ko'ndalang qo'yilgan edi, chunki mazkur jarayonning sir tutilishi javobgarning xavfni qay darajada aniq va ilmiy bahosini tekshirish imkoniyatini sezilarli darajada cheklardi. Ikkinchisi, xavfni baholashning bunday usuliga tayanish sudlanuvchining odil sudlovga bo'lgan huquqini buzadimi, chunki bunday xavfni baholash jins va irq masalalarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur ishda Viskonsin Oliy sudi Lumisning e'tirozlarini rad etdi, biroq sudya COMPASdan qay tarzda foydalanish haqidagi sabablarni ko'rsatishi zarur ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

So'nggi yillarda Niderlandiyada davlat boshqaruvi tizimida ko'plab islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Davlat Kengashi samarali boshqaruv tamoyili, asoslantirilgan qarorlar qabul qilish tamoyili va zaruriy tekshirish tamoyillarini raqamlashtirishga yanada ko'proq e'tibor qaratib kelinmoqda (881 N.W.2d 749 (Wis. 2016) en 137 S.Ct. 2290 (2017)). Bu islohotning asosiy maqsadi boshqaruv sohasidagi ma'lum bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda qaysi qoidalar (algoritm)lar) qo'llanilganligi va qaysi davlat organining ma'lumotlaridan nusxa olinganligi to'g'risida axborotga ega bo'lish edi.

Sun'iy intellekt-dan sud hokimiyati organlarida samarali foydalanish uchun nimalar qilish kerak?

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi hamda Axloq qoidalari tegishli standartlarni belgilaydi. Maz-

kur standartlar shaffof tartib, sudda ishtirok etuvchi tomonlarning tengligi, shuningdek, sudyalarning tomonidan asosli va adolatli hukm chiqarilishini talab etadi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sud jarayonini sod-dalashtirish asosli, shaffof bo'lishi, shu bilan birga, sud ishtirokchilariga teng sharoit yaratishi kerak.

SI tomonidan huquqiy axborotlar qayta ishlanishi uchun, birinchi navbatda, ushbu huquqiy axborotlar mashinada qayta ishlanadigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Sun'iy intellekt Inson huquqlari bo'yicha Konvensiyaning 6-moddasi talablari doirasida ishlashi uchun huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar, xususan, sudlar tomonidan chiqarilgan protsessual hujjatlar mazmun jihatdan to'g'ri bo'lishi talab etiladi. Hozirgi kunga kelib, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan mazmunan to'g'ri qabul qilingan protsessual hujjatlar ko'p emas. Mazkur vaziyat SI lozim darajada ishlashi va sudlar uchun foydalilik koeffitsientini tushirib yuboradi [11].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sun'iy intellekt axborotni tushunishi va qayta ishlashi uchun mazkur axborot boyitilgan, tizimlashtirilgan va yuridik mazmunga ega bo'lishi lozim [12].

Sud qarorlari chop etilishidan oldin matnni o'qish, hujjat tuzilmalari, shuningdek, identifikatsiya kodlari mavjud bo'lgan holda, mashinada qayta ishlanishi mumkin bo'lganda, sun'iy intellektdan ancha samarali foydalanish mumkin. Tizimlashtirilgan terminologiya ko'rinishida yuridik mazmun kasb etuvchi axborotlarni qo'shish sun'iy intellektning sud jarayonida ishlash samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt yanada samarali ishlashi uchun unga ko'proq ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Sud qarorlari, shuningdek, deyarli har doim protsessual va mazmun jihatdan murakkab bo'lgan axborotlarni o'z ichiga oladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, muhim qa-

rorlar har doim ham savollarga ha yoki yo'q deb javob berish bilan chegaralanadigan qarorlar hisoblanmaydi.

Asoslantirilgan qaror qabul qilish uchun sun'iy intellektga qancha miqdorda ha yoki yo'q javobi kerak bo'ladi [13]. Sun'iy intellekt qanday qilib ma'lum bir qarorga kelganini asoslab, tushuntirib bera olishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnik jihatdan shunday yaratilishi kerakki, u vaziyatni, ma'lum bir holatni insonlar kabi har tomonlama tushuntira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Biroq hozirga kelib, sun'iy intellekt bu darajada taraqqiy etmagan va amaliyotda u voqea va hodisani inson tushuntira oladigan darajaga yetib kelganicha yo'q [14].

Demak, sudlarda sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun hali ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Sun'iy intellekt ma'lum bir holat yoki ish yuzasidan natija qanday paydo bo'lganini asoslantirilgan tartibda tushuntira olishi lozim. Sud idoralari sun'iy intellektdan foydalanishi uchun ma'lumotlarni to'liq raqamlashtirishlari zarur.

Sudyalarning va sun'iy intellekt bilan ishlaydigan boshqa shaxslar ham sun'iy intellekt qay tarzda ishlashini bilishi lozim. Mazkur jarayonda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha axloq-etika qoidalariga nafaqat sud idoralari, balki har bir sud jarayonida ham rioya etilishi zarur. Albatta, bunda sun'iy intellekt bo'yicha etika qoidalariga rioya etilishini kim nazorat qiladi, degan savol hammani qiziqtiradi.

Yuqorida tahlil etilgan barcha bosqichlar inson nazorati zarur ekanligini ko'rsatadi. Avvalambor, sun'iy intellektdan foydalanuvchilar sun'iy intellekt qanday funksiyani bajarishini yaxshi bilib olishi kerak. Bundan tashqari, foydalanuvchilar sun'iy intellekt o'z vazifasini qay darajada to'g'ri bajarayotganini muntazam ravishda tekshirib borishi zarur. Shu bilan birga, tizim shunday yaratilishi kerakki, uni hech qanday qiyinchiliklarsiz

ma'lum bir vazifani bajarishga moslay olish darkor [15].

Albatta, bunda sun'iy intellektni tekshirish, nazorat qilish mustaqil sud tizimi ichida zarurmi yoki tashqaridan tekshirish maqsadga muvofiqmi, aniqlik kiritish zarur.

Biz o'ylaymizki, sud idoralaridagi ichki nazorat va tekshiruvlarga nisbatan jamoatchilik nazorati ko'proq shaffoflik hamda ishonchlilikni ta'minlay oladi.

### **Xulosalar**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishni erkinlashtirish, umuman, odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini bermogda. Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi sudlarga masofadan turib murojaat qilish, sud majlislarida videokonferensaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish, sudyalarda o'rtasida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash, sud qarorlarini Internet tarmog'ida e'lon qilish, ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimlari yaratilishiga zamin yaratdi. Bu esa sudlar faoliyatini yanada takomillashtirib, sudga murojaat qilgan fuqarolarimizga yanada ko'proq qulayliklar yaratmogda, xalqning odil sud hokimiyati va odil sudlovga ishonchini yanada orttirmogda. Biroq mamlakatimizda sud-huquq tizimi hamda inson huquqlari sohasida olib borilayotgan islohotlar sud tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmogda.

Hammamizga ma'lumki, sud-huquq tizimida juda ham ko'p ma'lumotlar mavjud. Katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) bilan ishlash uchun sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirilgan tizimga o'tkazishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormogda. Bundan tashqari, sud hokimiyati

organlarida inson omili bilan bog'liq ish yuklamasini kamaytirish maqsadida sud tizimiga sun'iy intellektni joriy etish dolzarb mavzuga aylanib bormogda.

Hozirgi kunga kelib, ko'plab rivojlangan davlatlarning sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanib kelinmogda. Sun'iy intellekt fuqarolarga sudda taraf bo'lib ishtirok etayotgan shaxslar hamda boshqa sud jarayoni ishtirokchilariga, shuningdek, sudyalarga ma'lumotlarni tartibga solishda yordam bermogda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'z maslahat va takliflari bilan sud jarayoni ishtirokchilariga yordam berib kelmogda. Sudyalarda undan to'g'ri foydalanish uchun SI qanday ishlashini tushunishlari muhimdir. Sudlar, o'z navbatida, sun'iy intellekt tizimlari samarali ishlashi uchun o'z ma'lumotlarini raqamlashtirishi va huquqiy talqini bilan ta'minlashi zarur. Sudlar o'z tizimining samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borishlari va kerak bo'lganda tuzatishlari lozim.

Albatta, sud tizimini raqamlashtirish hamda unga sun'iy intellektni tatbiq etish sud tizimini rivojlantirishdagi eng asosiy va zamon talablari darajasidagi islohotdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, tizim o'zgaruvchan qonunchilikka moslashadi va sudyalarning qaror qabul qilishdan oldin yordamchisiga aylanadi hamda fuqarolarga da'vo istiqbollari ko'rish imkonini beradi. U Oliy sudning muayyan ishlar bo'yicha mavjud qarorlari, shuningdek, Oliy sud qarorlari asosida prognoz-bashoratlarni ishlab chiqadi. Shunday qilib, sud amaliyotining bir xilligi va sud hujjatlarining ochiqligi ta'minlanadi. Fuqarolar uchun sun'iy intellekt AT sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan foydalanilgan holda, sud ishlarini ko'rib chiqish natijalarini topish va baholash uchun sifatli vositaga aylanadi. Bu da'vogarga sudga da'vo qilingan arizaning muvaffaqiyatli bo'lish ehtimolini taxmin qilish va shu asosda ishni sudga bermasdan qaror qabul qilish imkonini beradi.



## REFERENCES

1. McCarthy J. et al. A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence, 1955, August 31. Ed. J. Kaplan. Artificial Intelligence: What Everyone Needs to Know, Oxford, Oxford University Press, 2016.
2. Julia L. L'intelligence artificielle n'existe pas (AI does not exist). First Edition, Paris, 2019, p. 123.
3. Kahnemann D. Thinking, fast and slow. London, Penguin, 2011, p. 43.
4. British Columbia Civil Resolution Tribunal, 2019. The Civil Resolution Tribunal. Available at: <https://civilresolutionbc.ca/>.
5. Van der Put M. Kan artificiële intelligentie de rechtspraak betoveren (Can AI bewitch the courts)? *Rechtstreeks*, 2019, February, pp. 50-60.
6. Aletras N., Tsarapatsanis D., Preoțiuc-Pietro D., Lamos V. Predicting judicial decisions of the European Court of Human Rights: a Natural Language Processing perspective. *PeerJ Computer Science*, 2016, 2:e93. DOI: 10.7717/peerj-cs.93/.
7. Prakken H. Komt de robotrechter eraan (Is the robot judge arriving?)? *Nederlands Juristenblad*, 2018, April, no. 207.
8. Institute for Crime and Justice Policy Research World Prison Brief. Available at: [www.prisonstudies.org/](http://www.prisonstudies.org/) (accessed 06.12.2019).
9. Angwin J. Machine Bias. *ProPublica*, 2016, May 23.
10. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ). European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial systems and their environment. Strasbourg, Council of Europe, 2019.
11. Council of State advice of September 6 2018, Staatscourant. Official Gazette, 2018, 50999.
12. Contini F., Lanzara G.F. The elusive mediation between law and technology. P. Branco, N. Hosen, M. Leone and R. Mohr (eds), *Tools of Meaning: Representation, Objects, and Agency in the Technologies of Law and Religion*, I Saggi di Lexia, Aracne, Rome, 2017-2018, pp. 4-9.
13. Hildebrandt M. Position on artificial intelligence and the law', Position paper for hearing/round table discussion on Artificial Intelligence in the administration of justice, on at the Second Chamber of Parliament of the Netherlands, 2018, March 29. Kamerstukken (Chamber documents) II 2018Z05199.
14. Van Opijnen M. Legal(ly) linked data. *Computerrecht*, 2018, February, no. 55.
15. Scherer M. Artificial Intelligence and Legal Decision-Making: The Wide Open? Study on the Example of International Arbitration, 2019, May 22. Queen Mary School of Law Legal Studies Research Paper No. 318/2019. Available at: <https://ssrn.com/abstract=3392669/>.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.